

FARG'ONA VILOYATIDA TA'LIM STATISTIKASI

1. MAKTABGACHA TA'LIM

Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadigan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muhim o'rin tutadi. Farg'ona viloyatida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 2016 yilda shu yoshdagi aholining 28,9 foizini tashkil etdi. 2017 yil 1 yanvar holatiga viloyatda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 670 tani tashkil etib, shundan 386 tasi shahar, 284 tasi qishloq joylarda joylashgan. Ularda tarbiyalanayotgan 78648 nafar bolalardan 51.8 foizini o'g'il bolalar, 48,2 foizini qizlar tashkil etadi .


1-jadval

2016 yilda maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari, birlik

Maktabgacha ta'lim muassasalari soni	O'rinlar soni	Bolalar soni	Ulardan qizlar	100 ta o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, bola
670	86360	78648	37898	88
Shahar joylarda				
386	56834	52479	24831	92
Qishloq joylarda				
284	32526	26269	13067	80

1-rasm


Maktabgacha ta'lim muassasalari sonining qishloq va shahar joylar bo'yicha taqsimlanishi, hududlar kesimida (birlik) (2016 yil)



Maktabgacha ta'lim muassasalarida 100 ta o'ringa hisoblangan bolalarning o'rtacha soni bo'yicha eng ko'p Farg'ona, Marg'ilon Quvasoy shaharlari va Yozyovon, Oltiariq, Farg'ona, Toshloq, So'x hamda O'zbekiston tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

2-rasm


2016 yilda hududlar bo'yicha taqsimlangan holda, 100 ta o'ringa nisbatan hisoblangan bolalarning o'rtacha soni.



Viloyat bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 8698 nafarni tashkil etib, ulardan 17,9 foizi oiliy ma'lumotli, 82 foizi o'rta maxsus pedagogik ma'lumotlilardan iborat. Pedagog xodimlar umumiy sonidan 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar 33,9 foizni, shu jumladan qishloq joylarda 11,6 foizni tashkil etadi.

3-rasm


Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining ish staji bo'yicha soni, 2016 yil.



2. UMUMIY O`RTA TA`LIM


2016/2017 o`quv yilida mavjud 918 ta umumiy o`rta ta`lim maktablarida jami 510 mingta o`quvchilar tahsil olgan bo`lsa, ulardan 232,3 ming nafari qishloq joylarda joylashgan 498 ta umumiy o`rta ta`lim maktablari hissasiga to`g`ri keladi. Umumiy o`rta ta`lim maktablaridan 62,5 foizi ikki smenada mashg`ulot olib boradi. Ushbu ko`rsatkich hududlar bo`yicha tahlil qilinganda, Beshariq tumani(90,0%), Oltiariq tumani (80,0%) So`x tumani (72,0%), Toshloq tumanida (71,0%), O`zbekiston tumani (70,0%) hamda Marg`ilon shahari (70,0%) Farg`ona shahrida (67,0%) yuqori foizni tashkil etmoqda. Viloyat bo`yicha umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi o`quvchilarning 124,4 ming nafari ikkinchi smenada ta`lim olmoqda (5-rasm).

4-rasm



5-rasm


Umumiy o`rta ta`lim maktablarini mashg`ulotlar smenaliligi bo`yicha taqsimlanishi
foizda (2013-2016 yillarida)



Ta'lim tizimining ahvoli haqida muhim ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu ta'lim muassasalarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar sonidir. U o'quvchilar umumiy sonini o'qituvchilar umumiy soniga bo'lish orqali aniqlanadi. 2016 yilda Farg'ona viloyatining umumta'lim maktablarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni 13 ga teng bo'ldi. (6-rasm).

6-rasm

Hududlar bo'yicha har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, 2016 yil



3. O`RTA MAXSUS KASB - HUNAR TA`LIMI.

Farg`ona viloyatida 2016/2017 o`quv yili boshiga akademik litseylar soni 12 tani, kasb-hunar kollejlari soni 145 tani tashkil etdi (2-jadval).


2-jadval

O`rta maxsus kasb-hunar ta`limining asosiy ko`rsatkichlari
(2000-2016 yillar)

	Akademik litseylar	Ularda o`quvchilar (ming kishi)	O`qituvchilar	Kasb hunar kollejlari	Ularda o`quvchilar (ming kishi)	O`qituvchilar (ming kishi)
2016/2017-o`quv yili boshiga	12	8,3	0,7	145	154.3	11.5

7-rasm

Akademik litseylar va kasb hunar kollejlari soni
(2013-2016 yillar)




2016/2017 o`quv yili boshida Farg`ona viloyati o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi tizimining akademik litseylarida o`quvchilar soni 8282 nafar (shundan, 3771 nafari qiz), kasb-hunar kollejlari esa 154250 nafar (shundan, 74967 nafari qiz) ni tashkil etdi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari soni, ming kishi

(2016/2017 o'quv yili boshiga)

8-rasm



4. OLIY TA'LIM

Farg'ona viloyatida oliy ta'lim muassasalari soni 2016/2017 o'quv yili boshida 3 tani tashkil etib, ularda o'qiyotgan talabalar soni 18335 nafarni tashkil qildi. 2015/2016-o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida har bir professor o'qituvchiga 17 nafar talaba to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016/2017-o'quv yili boshiga kelib 12 nafarni tashkil qildi. (3-jadval).

3-jadval

Farg'ona viloyatida oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari

	Oliy ta'lim muassasalari soni	Talabalar soni (ming kishi)	Professor o'qituvchilar soni (ming kishi)	Har bir professor o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni
2014/2015-o'quv yili boshiga	3	18.2	1.5	12
2015/2016-o'quv yili boshiga	3	18.2	1.6	11
2016/2017-o'quv yili boshiga	3	18.3	1.5	12

2016/2017 o'quv yili boshida oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar soni, kishi

9-rasm

